


Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2024- yil yanvar-mart)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 25479,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,2 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasi to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20293,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



B – Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** - Ishlab chiqaradigan sanoat **D** - Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E** - Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoatining – 5,6 %ga, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning – 18,6 %ga o'sganligi ta'sir qildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ-kon sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,1 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,3 %ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-mart oylarida, %da)



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, %da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Koʻmir, <i>ming t.</i>	77,6	98,4	20,8
Chaqiq tosh, <i>ming t.</i>	77,6	98,4	20,8
Kaolin, <i>ming t.</i>	43,0	21,3	-21,7

Ishlab chiqaradigan sanoat




2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,3 trln. soʻmni yoki oʻtgan yilga nisbatan 105,6 %ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-mart oylada, %da)




Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 %ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida 2,2 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 6,9 % (7,9 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 48,6 % (48,0 %) va quyi texnologiyalisi – 23,2 % (26,7 %)ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,4 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 40,0% (2023- yilning yanvar-mart-oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,1% (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,6%), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,5% (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 78,1%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,8 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,3 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2024- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 7,8 ming tonna o'simlik yog'i (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 m), 0,6 ming tonna suyultirilgan sut (113,4 %) mahsulotining ishlab chiqarilishi o'sganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da


O'simlik yog'i (tozalangan)



Pishloq va tvorog




Yumshoq bug'doy va spelta uni




Pivo



Aroq



Uzum vinosi



Sement



Paxta chigiti



Kalava ip



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	73,2	48,9	-24,3
Shakar, <i>ming t.</i>	98,2	40,0	-58,1
Paxta tolasi <i>ming t.</i>	19,9	16,8	-3,2
Portlandsement, <i>ming t.</i>	474,1	421,2	-52,9

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish holati o'tgan yilning shu davriga nisbatan pasayishi ammoniy nitrat (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 73,9 %) mahsulotida ko'rsatkichlari qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da

Ammoniy sulfat



Ammoniy nitrat




Etil spirti



Metallurgiya sanoati (yanvar-mart oylarida)



FHI
%da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 40,0 %ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 97,3 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 10189,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (yanvar-mart oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,1%ni, uning fizik hajm indeksi esa 67,6 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 781,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




FHI
%da



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar-mart oylarda)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,4 %ni tashkil etgan, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 74,1 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 2389,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-mart oylarda)



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,2 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,6 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 550,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-mart oylarda)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,7 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 107,4 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 1455,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI
%da




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-mart oylarda)



FHI
%da




2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2%ni, fizik hajm indeksi esa 95,0%ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 815,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar-mart oylarda)

2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 78,3 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 780,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-mart oylarda)



2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 9,4 barobar oshgan va ishlab chiqarish hajmi 496,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


**Avtotransport vositalari, treylerlar
va yarim tirkamalar ishlab chiqarish**
(yanvar-mart oylarda)



2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlabchiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,4%ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 126,1 %ni, ishlab chiqarish hajmi 1640,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish
(yanvar-mart oylarda)

2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 95,6 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 434,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar-mart oylarda



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,0 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (15,8 %ini) tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylada, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 18,5 %ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-mart oylada, %da)




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4808,9	5204,2	395,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1002,2	1091,2	89,0
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub. m.	25354,0	41271,0	15917,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar-mart oylarda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-mart oylarda, %da)



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	13,0	16,7	3,7
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar, mlrd.so'm	28,0	42,3	14,4














O'tgan yilning mos davriga nisbatan, Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarida 84,2 %ni tashkil etdi.

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**
2024- yilning yanvar-mart oylarda

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4,6 trln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 18,0%ni tashkil etdi.

**Toshkent viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**
2024-yilning yanvar-mart oylarda

	Toshkent viloyati				Boʻka		
	Mrd. soʻm	Ulushi %da	%da		Mrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	25 479,5	100,0	106,2		106,0	0,4	101,3
	Nurafshon				Boʻka		
	Mrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	863,2	3,4	108,5		106,0	0,4	101,3
	Olmalik				Zangiota		
	Mrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	8438,4	33,1	104,8		751,2	2,9	101,3
	Angren				Qibray		
	Mrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	1328,5	5,2	104,3		2512,0	9,9	110,4
	Bekobod				Quy Chirchiq		
	Mrd. soʻm	%da	Oʻsishi %da		Mrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	2285,3	9,0	105,1		276,6	1,1	98,4
	Ohangaron				Parkent		
	Mrd. soʻm	Ulushi %da	%da		Mrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	940,8	3,7	100,3		226,8	0,9	105,4
	Chirchiq				Piskent		
	Mrd. soʻm	Ulushi %da	%da		Mrd. soʻm	Ulushi %da	%da
	2220,1	8,7	104,6		156,7	0,6	107,1

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	213,2	0,8	102,2		323,5	1,3	88,2
Yangiyo'l				O'rta Chirchiq			
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	263,6	1,0	104,8		241,2	0,9	101,2
Oqqo'rg'on				Chinoz			
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	1988,3	7,8	100,2		573,0	2,2	101,3
Ohangaron				Yuqori Chirchiq			
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	135,4	0,5	108,8		597,0	2,3	104,1
Bekobod				Toshkent			
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	%da
	506,4	2,0	101,5		532,3	2,1	110,3
Bo'stonliq				Yangiyo'l			

Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, %da




■ 2023- y. IFO

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Nurafshon (2023- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 108,5 %), Chirchiq (104,6 %) shaharlari hamda Qibray (110,4 %) tumanida sezilarli darajada oshdi.

Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 33,1 %) hamda Bekobod (9,0 %), Chirchiq (8,7 %), Angren (5,2 %) va Ohangaron (3,7 %) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Bo'ka (0,4 %) hamda Bekobod (0,5 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (57464,1 ming so'm), Ohangaron (22712,9 ming so'm) va Bekobod (21850,1 ming so'm) shaharlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8329,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


2024- yilning yanvar-mart oylarda, ming so'm


	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	8329,7	104,2
2483,8		


	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	15325,6	101,1
Nurafshon		


	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	786,6	97,1
Bo'ka		


	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	57464,1	101,1
Olmalik		

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	4375,1	98,9
Zangiota		

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	7265,0	103,0
Angren		


	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	14291,9	103,9
Qibray		

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	22712,9	103,1
Ohangaron		


	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	2381,7	99,8
Quy Chirchiq		


	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	21850,1	98,1
Bekobod		









	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	1268,9	105,1
Parkent		

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	12815,2	99,4
Chirchiq		

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	1540,1	88,4
Piskent		

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	2488,2	98,0
Yangiyo'l		


	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	2353,1	99,4
O'rta Chirchiq		

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	2345,8	98,6		1654,0	108,2
	Oqqo'rg'on			Chinoz	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	17837,8	106,9		4107,4	108,9
	Ohangaron			Yuqori Chirchiq	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	815,9	100,0		2997,4	101,0
	Bekobod			Toshkent	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>% da</i>
	2862,4	100,5		2655,2	102,5
	Bo'stonliq			Yangiyo'l	

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5602,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,0 %ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Zangiota (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (93,7%), Yuqori Chirchiq (82,0 %), Toshkent (85,5 %) tumanlarida kuzatildi.



Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Olmaliq (2,1 %) va Bekobod (1,8 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Toshkent viloyatida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2024- yil yanvar-mart oylarida)

Bugungi kunda viloyatda 6604 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 963 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 14,6 %) Zangiota tumaniga, 612 tasi (9,3 %) Qibray tumaniga, 559 tasi (8,5%) Toshkent tumaniga, 423 tasi (6,4 %) Chirchiq shahriga, 330 tasi (5,0 %) Angren shahriga to'g'ri kelmoqda.



2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 318 ta yangi sanoat korxonaları tashkil etildi, shulardan 52 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 16,4 %) Zangiota tumaniga, 16 tasi (5,0 %) Qibray tumaniga, 22 tasi (6,9 %) Toshkent tumaniga, 14 tasi (6,4 %) Chirchiq shahriga, 17 tasi (5,3 %) Angren shahriga to'g'ri kelmoqda.